



NAZAR ESHONQUL IJODIDA PARANORMAL VOQELIKNING MODERNISTIK TALQINI

SANOBAR SAYDAZIMOVA

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

SamDCHTI o'qituvchisi

saidazimova2595@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasidagi paranormal epizodlarning badiiy funksiyasi, shuningdek, zamonaviy o'zbek nasridagi estetik-falsafiy yondashuv nuqtayi nazaridan bu epizodlarning g'oyaviy-badiiy vazifalari ochib beriladi. Jumladan, modernizmning badiiy-estetik tamoyillari bilan paranormal epizodlarning bog'liqligi hamda o'zbek adabiyotida modernizmga xos bo'lgan asarlarning murakkab qirralari, ayniqsa, noreal tasvir va g'ayritabiiy hodisalarning badiiy strukturadagi o'rni tahlilga tortilgan.

Tayanch so'zlar: paranormal epizodlar, modernizm, mistik tasvir, metamorfoza.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyo adabiyotida yuzaga kelgan modernizm oqimi, bir tomondan, insoniyatning shiddat bilan o'zgarayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitga nisbatan shakllangan yangi badiiy munosabati sifatida yuzaga chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan, realistik adabiy mezonlarning doirasidan chiqishga intilgan, inson tafakkuri va ichki olamining tub mohiyatini ochishga qaratilgan estetik harakat sifatida maydonga chiqdi. Modernizm badiiy tafakkurning substansiyasini tubdan o'zgartirdi: u inson ongi, ruhiy kechinmalari, mavjudlik va mavhumlik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni, noaniq va ziddiyatli holatlarni, mantiqsiz tuyuluvchi, biroq ichki mantiqqa ega bo'lgan ruhiy jarayonlarni tasvirlashga urg'u berdi.

“Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, san'at va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi”. [1;177-bet] Modernizm Yevropa, AQSH adabiyoti va san'atida rivoj topgan oqim va yo'nalishlarning umumiy nomi sanaladi. Ushbu oqimning o'zbek adabiyotidagi ta'siri ayniqsa 1990-yillardan keyingi davr adabiyotida, jumladan qissalarda aniq sezila boshladi. Bu davr ijtimoiy-siyosiy hayotdagi keskin o'zgarishlar, mafkuraviy bo'shliq va yangi g'oyaviy-estetik



izlanishlar bilan tavsiflanadi. Yozuvchilarning yangi mavzularga yuz tutishi, ilgari cheklangan yoki chetga surilgan badiiy shakllarni sinab ko'rish adabiy tajribaning yanada erkin tus olishiga olib keldi. Ayniqsa, realizmdan voz kechish yoki realizm doirasini kengaytirishga bo'lgan urinishlar, badiiy va g'oyaviy tasvirga paranormal hodisalarni jalb etish orqali voqeliklar o'ziga xos talqin qilina boshladi. "...modern adabiyot insoniyat tafakkurining yuksalishi unga baxtu saodat emas, balki azobu uqubat olib kelishi ham mumkinligini konkret insoniy taqdirlar misolida ko'rsatib berdi. Shuningdek, modernizm borliq va hayotga hech qanday tugallikka ega bo'lmagan, son-sanoqsiz umr va taqdirlarni o'z gumiga tortib ketaveradigan uzluksiz oqim tarzida yondashish tajribasini boshlab berdi". [2;254-bet]

Ma'lumki, "Modernizm – jo'n hodisa emas". [6] Modernizmda vaqt, makon, shaxsning izchil xarakteri kabi tushunchalar qat'iy tasvirdan chetlanadi. Aksincha, ong oqimi, ruhiy ziddiyat, tush va voqelik orasidagi noaniqliklar, g'ayrioddiy holatlar tasvirning asosiy markaziga aylanadi. Xususan, "...islomiy-turkiy xalqlar hayotida ham, badiiy adabiyotida ham azal-azaldan insoniy aql bilan izohlash va anglash mumkin bo'lavermaydigan ilohiy holatlar tasviri o'ta muhim o'rin tutib kelgan". [2;253-bet] Aynan mana shu jihatlarda o'zbek prozasida paranormal hodisalarni badiiy tafakkurning muhim komponenti, shuningdek modern asarlarning asosiy vositasi sifatida tasvirlanishiga imkon yaratdi. Jin, arvo, shayton, iblis, ajina, oziqchi, alvasti, qorahayol kabi diniy-mifologik obrazlar va g'ayritabiiy hodisalar: allaqanday "sezgi"lar, o'zga olam bilan muloqot, galyutinatsiya, ruhiy buzilishlar, vaqt va makondan tashqaridagi tajribalar, metamorfoza (evrilishlar-N.Eshonqulning "Bahouddinning iti" hikoyasida bosh qahramonning itga aylanishi) bularning barchasi real voqelik bilan raqobatlashuvchi ikkilamchi dunyo sifatida talqin etildi.

Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, modern yozuvchilar olam va odam haqidagi tushunchalarni tasvirlashda sovuq va hissiz ratsional fikrlashga qarshi, shaxsning ongosti va xayoliga asoslangan irratsional o'ylash tarzini qo'yadilar. Shu sababli modern ijodkorlar o'z asarlarida ko'plab mo'jizalar, rivoyatlar va sirli hodisalardan foydalanadilar. Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, bunday yondashuv Sharq adabiyotiga xos bo'lib, turkiy-islomiy xalqlarning hayotida va adabiyotida ham aql bilan tushuntirib bo'lmaydigan ilohiy holatlar tasviri badiiy adabiyotda muhim o'rin egallagan. Asosiy farq shundaki, turkiy-islomiy adabiyotda bunday g'aybiy hodisalar muammolarni hal qilish va qahramonlarga yordam berish uchun xizmat qilgan bo'lsa, modern asarlarda ular qahramonlarning hayotini yanada qiyinlashtiradi va yo'llarini to'sadi. Masalan, "Malika ayyor" dostonida Shozargar mahbubasini olmaga aylantirib to'rtasida olib yuradi, dev esa ignaga



aylantirilib yoqasida yashiriladi. Nazar Eshonqulning “Bahovuddinning iti” hikoyasida esa, ma’naviyatsizlikdan charchagan ovoz rejissyori itga aylanib, itlar orasida yashashni tanlaydi. “Ya’nikim, folklor yoxud mumtoz adabiyot namunalarida mistik tasvirlar qahramonning holatini yengillatishga xizmat qilsa, modern asarlarda ularning qismatini og’irlashtiradi. Ayni shu mistik holatlar tasviri aks etgan o’rinlarda hamisha Yaratganga ishonib, unga tavakkal qilgan va butun ixtiyorini bergan mo’min bilan Kunbotishning har bir qadamini o’z tafakkuriga tayanib bosmoqchi bo’ladigan va shunga yarasha natijaga erishishni kutadigan odami ruhiyati va qismati o’rtasidagi keskin ayirma namoyon bo’ladi”. [2;254-bet]

Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasi “Momoqo’shiq” qissasining mantiqiy davomidek tuyuladi. Asar bosh qahramoni o’ttiz bir yoshli jurnalist yigit “Momoqo’shiq” qissasidagi Shamsi Salohning Muazzamga bo’lgan muhabbati va qishloq safaridan keyingi ruhiy holatini aks ettirgandek tasavvur uyg’otadi. Qissa qahramoni o’zini “...bolalik olmasining aynigan, buzilgan tomoniman” [3;482-bet] deb hisoblaydi. “Adib qissada ikki olam manzarasini parallel tasvirlashga muvaffaq bo’ladi. Kishilar kundalik maishiy turmushi, axloqiy qarashlari qamrab olingan jamiyatda hayot oqimi davom etaveradi. Ikkinchi sirli olam tun shaklida namoyon bo’lib, uning yolg’iz, noumid toifasi shayton hukmronligiga mahkumligini tan olmaydi. Ayni shu olam vakillari faoliyati modern asar kompozitsiyasini tashkillashtiradi”. [5;208-bet] Qissada g’ayritabiiy hodisalar, tun va shayton tasviri uyg’unligi, tahayyul olamining shaffof manzili, qahramonning “Tun ertaklari” nomli turkum hikoyalari modernizm unsurlarini o’zida aks ettiradi. Asar davomida shayton obrazining ramziy va ko’chma ma’nosi tobora oydinlashadi. Har qancha ularning “g’aroyib jonivorlar” sifatida tasvirlanishiga urg’u berilsa-da, mohiyat e’tibori bilan gap aslida iblissifat insonlar haqida ketayotgani anglashiladi. Shu ma’noda, shayton asarda muallif badiiy niyatining ta’sirchan va qiyosiy uslubda ifodalanishiga xizmat qilgan. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, birinchidan, tun va shayton “ma’nisizlik olami”ning asosiy tayanch unsurlari sifatida mantiqan asoslanadi; ikkinchidan esa, ular o’rtasidagi o’zaro uyg’unlik qissadagi salbiy ramziy obrazlarning bir butun tizim sifatida shakllanganini ko’rsatadi.

“Tun panjaralari” qissasi ma’lum bir syujet liniyasiga ega emas; qissa ichki monolog asosiga qurilgan; qahramon ayni kundagi hayotidan norozi, o’ta tushkun kayfiyat va umidsizlik iskanjasida; atrofidagi sodir bo’layotgan paranormal voqealiklar, biqiq muhit, u yashaydigan kvartira manzaralari ham ayni uning ruhiyatiga hamohang. U faqatgina qorong’u tundan va uzoq o’tmishidagi baxtli bolalik kunlari hamda Robiya va Xosilaga bo’lgan muhabbatining xotiralaridan orom topadi. “Tun – mening xilvat boshpanam.



Balki, yolg'iz manzilib ham shu yerdir. Men faqat tun qo'ynidagina, mana shu kichkina, qorong'u burchagimdagina o'zimni erkin his etaman, ko'nglimdagi o'ylarni, sirlarni unga aytaman". [3;501-bet] Insonning yorug'likdan ko'ra zulmatda halovat topishi, dunyoni qora ranglarda ko'rishi, qahramonning botinidagi hafsalasizlik, loqaydlik, umidsizlik, o'z taqdiriga befarqlik kabi jihatlar uni "shaytanat" olamiga yaqinlashtiradi. Qahramonning shayton bilan ilk uchrashuvi yoz kechalarining birida "tush bo'lib tushga, o'ng bo'lib o'ngga o'xshamaydigan" beorom tunlarida sodir bo'ladi. Shayton sarg'ish, jundor dumli va shoxi bor holatda tasvirlanadi. Shayton bilan uzoq vaqt uchrashuvlardan so'ng, uni shaytonlar qarorgohiga olib borishadi va dog'uliroq va surbetroq shaytonlarning xo'jayini: "...tun – bizga qarashli saltanat, bizning tasarrufimizda, daxlsiz. Tun bizga ota-bobolarimizdan meros",- deydi sirli kulib. Ko'rinadiki, asardagi shayton va shaytanat olami haqidagi tasvirlar qahramonning chuqur hayolot mahsuli ekanligi va qahramon diapazonidan qaragandagina paranormal epizod bo'lishi mumkin. "Asardagi noreal lavhalar, ma'naviyatdan mahrum kimsalarni hayolot kashfiyotlari tegrasida harakatlantiradi". [5;209-bet] Shayton obrazi azal-azaldan adabiyotda mavjud bo'lib, ilk asosi, genezisi muqaddas manbaga borib taqaladi. Xususan, Qur'oni karimdagi shaytoni lay'in haqidagi oyat va suralar fikrimizni tasdiqlaydi. Badiiy adabiyotda shayton insonni chin e'tiqodidan adashtiruvchi, vasavasaga soluvchi, iymonni zaiflashtiruvchi vosita sifatida faol qo'llanilib kelingan. XX asr zamonaviy o'zbek nasrida A.Fitratning "Shaytonning tangriga isyoni" va A.Avloniyning "Biz va siz" dramalarida, Shoyim Bo'tayevning "Shox" romanida Janob Ximer obrazida shayton yangicha talqinda o'z ifodasini topgan.

Asar qahramonining ismsiz ekanligi modern asarlarga xos xususiyatdir. Uning absurdga to'la hayoti nega bunday holga kelib qolganligining sababi asarda ochiq qilinmaydi. Ammo uning jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan, omadsiz yakunlangan sevgi qissasi qahramonning ayni absurd holatining sabablarini qisman tasdiqlaydi. Qahramon uchun "hayot o'qib bo'lingan kitobday shavqsiz", uni hech bir narsa hayratlantirmaydi va bu hayratning yo'q ekanligidan qahramon dahshatga tushadi. "Dahshat! Dunyodagi hech narsadan hayratlanmay qo'yish dahshat!" Adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov aytganlaridek: "Inson hayratini yo'qotgan joyda, insonning hayrat tuyg'usi mahrum qilingan joyda iymon-e'tiqodini ham, o'zligini ham yo'qotadi". [4] Darhaqiqat, ushbu fikrlar asar qahramoni holatini bor bo'yicha aks ettiradi. Olloh bergan va yaratgan mo'jizalariga, go'zal yaratilqlariga, har bir kunning shukuhli onlariga hayratlanmay, zavq olmasdan yashashlik insonning e'tiqodi va ma'naviyatini tanazzulga boshlaydi. Qahramon qalban yolg'iz, o'z qobig'iga o'ralib olgan, go'yoki uni hech kim tushunmaydi; tahayyul



olamidagina baxtga erishadi. “Mudhish! – atrofingda g‘uj-g‘uj, langar-langar odamlar bo‘lsa-yu, oddiygina “charchadim” degan so‘zni aytishga munosib kishi topilmasa – sahroda qo‘qqayib turgan yolg‘iz daraxtday bu zim-ziyo, huvillagan tunda chor atrofingda senga bir og‘iz tasalli beradigan hech kim bo‘lmasa, naqadar mudhish!”. [3;490-bet]

Modernizmga xos xususiyatlardan yana biri – asar qahramonlari real hayotda emas, balki, hayot dunyosida o‘z orzu-istaklarining ijobatini ko‘radi, qalbi sakinatda orom topadi. “Xayol – tabiatning go‘zal in‘omidir. Hechqursa, odam xayolan baxtiyor bo‘lsa, shu ham ulkan saodat” [3;506-bet] Bu holat insonni yashab turgan jamiyatidan, insonlardan uzoqlashtiradi. Tabiiyki, kishi ruhiyatida o‘z-o‘zidan paranormalikka moyillik, shaytanat olami bilan yaqinlashuv, spiritizm (spiritizm – bu atama XIX asrda paydo bo‘lgan va asosan ruh chaqirish, arvohlar bilan muloqot qilish, medial vositalar orqali ularning ovozi eshitish kabi holatlarni o‘z ichiga oladi) holatlari ro‘y beradi. “Qahramonning tartibsiz hayoti, tushuniksiz kechinmalari g‘ayritabiiy lavhalarni yuzaga keltiradi. Ijodkor bizga ma‘lum olam ajoyibotidan o‘zga diyorlarga ham nigoh tashlashga imkon yaratadi. Kurrai zamindagi tilsimotni ramzlar orqali anglatishda vaqt, makon tushunchalarida aniqlikka rioya etilmaydi, umumiy maqsadni yoritishda xayol mahsulidan ham o‘rinli foydalaniladi”. [5;210-bet] Qissa qahramonining Sulaymon bilan uchrashuvi va ularning qisqa muddatli faoliyati, aloqalari asardagi paranormal epizodlarga misol bo‘ladi. Qissa qahramoni baxtsiz halokat sababli vafot etgan inson (Sulaymon) ning ruhi bilan uch oy davomida suhbatlashadi, yonma-yon yashaydi. Go‘yoki birgina ruh uning hislarini, fikrlarini anglaydi, atrofidagi jamiyatga esa o‘zini begona hisoblaydi. Inson shu qadar ham qalban, ham ma‘nan yolg‘izlikka, imyon-e‘tiqodi tanazzulga yuz tutgan va tund va biqiq muhitga mahkum bo‘lganki, najotni faqat tunning qorong‘uligidan, shaytanat olamidan va vafot etgan kishining arvohidan taskin topadi. Qahramon absurd hayotida o‘ta baxtsiz va aftodahol. Asarda arvoh bilan muloqat va epizodlar paranormal holatga yaqqol misol bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida paranormal hodisalarning estetik vazifasi, ular orqali yozuvchining g‘oyaviy-falsafiy masalalarni yoritishga uringani, modernizmning badiiy-estetik tamoyillari bilan bu epizodlar qanday aloqada ekanligini orqali o‘zbek adabiyotida modernizmga xos bo‘lgan asarlarning murakkab qirralari, ayniqsa, noreal tasvir va g‘ayritabiiy hodisalarning badiiy strukturadagi o‘rni muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil etildi.

ADABIYOTLAR



1. Д.Куронов., З.Мамажонов., М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Академнашр, 2013- Б. 177
2. Қозокбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. -Тошкент: Kamalak, 2016. Б-254
3. Эшонқул Н. Сайланма II. Роман ва қиссалар. - Тошкент: Академнашр, 2022. - Б- 501
4. Men bilgan haqiqatlar / Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov bilan suhbat.
5. Расулова Умида Йўлдош қизи XX аср ўзбек қиссачилиги (Поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Б-209
6. Узоқ Жўракулов Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп (Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар) Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент – 2015 51-бет
7. Қозихўжа А. Гар ортуқ сўз дедим... / Тўпловчи, масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи: ф.ф.д., профессор У.Жўракулов. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 163.